# MAKTABGACHA NODAVLAT TA’LIM TASHKILOTLARIDA TA’LIM-TARBIYA SIFATINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

**Xallokova Maksudaxon**
*PhD,*
**Karimova Dilshoda**
*magistr,*
*Farg’ona davlat universiteti*

**Annotatsiya:** *So’nggi yillarda mamlakatimizda maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda maktabgacha ta’lim muassasalari davlat va nodavlat tarmog’ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, maktabgacha ta’lim muassasalariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta’lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma’naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilashga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.*

**Kalit so’zlar:** *ta’lim, nodavlat ta’lim tashkiloti, innovatsiya, ta’lim sifati.*

Har bir jamiyatda shaxsni shakllantirish maqsadi belgilab olinadi va unga mos ravishda pedagogik tizim mavjud bo’lishi kerak. Agar maqsad o’zgarsa mavjud tizim xam o’zgarishi muqarrardir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi jamiyat, davlat va oila oldida o’z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni bosh maqsad qilib qo’ydi. Demak, Milliy dastur ta’lim va tarbiya sohasidagi davlat buyurtmasi hisoblanib mafkuraning tarkibiy qismini tashkil etadi. Faqat ijtimoiy (davlat) buyurtmasigina ta’lim-tarbiyaning umumiy maqsadi va vazifalarini aniq belgilab beradi yoki oliy (o’rta, o’rta maxsus, kasb-hunar) ta’lim uchun pedagogik tizimning mavjudlik shartlarini kafolatlaydi.

Pedagogik ta’lim rivojlanishining zamonaviy innovatsion yo‘nalishlarini ichida xususiy innovatsion nazariyani shaxsiy (xususiy) yo‘nalishli ta’lim sohasidagi ishlanmalarni, ta’limni tashkiliy-tuzilmaviy modelini, ta’limni ko‘p darajali tizimini rivojlantirishni ajratib ko‘rsatish mumkin. Hozirgi kunda Respublikamizda olib borilayotgan islohotlarning tub zamirida yosh avlodni tarbiyalash, ayniqsa ularni eng zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalana olishlarini ta’minlash eng dolzarb muammolardan biri bo’lib turibdi. Shuning uchun ham, ta’lim muassasalarining o‘kuv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o‘kitish uslublari - interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o‘rni va axamiyati beqiyosdir.

Hozirgi zamon maktablarida pedagogik jarayonni tashkil qilish ta’lim tarbiyaning usul, vosita va shakllarini tanlash faqat bilim, ko’nikma, malakalarga yo’naltirishdan tashqari ularni bilish jarayoni, xissiy kechsinmalarini o’zlashtirishga alohida e’tibor berish zarur.

Bugun esa maktabgacha ta’lim bolani intellektual, jismoniy va ma’naviy rivojlantirishga, uni shaxs sifatida tarbiyalashning dastlabki va muhim bo’g’iniga aylandi. Yurtimizda maktabgacha ta’lim bola olti-yetti yoshga yetgunicha davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya muassasalarida amalga oshiriladi.



Mutaxassislar inson o'z umri davomida oladigan barcha bilimlarning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda olishini ta'kidlashadi. Endi shu o'rinda kelajak avlodga ta'lim-tarbiya berishda maktabgacha ta'lim muassasalarining o'rni va ahamiyatini tasavvur qiling.

Keyingi yillarda maktabgacha ta'lim muassasalarining faoliyat samaradorligini oshirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo'naltirilgan qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, bugungi kunda nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarining ta'lim dasturlari va o'quv-tarbiyaviy rejalariga qo'yilgan davlat talablarini takomillashtirish dolzarb masalaligicha qolmoqda. Aksariyat maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi zamon talablariga javob bermaydi. Bolalarni maktabgacha ta'limga qamrab olish ko'rsatkichi hamon pastligicha qolmoqda.

Oila va bog'chada bolalarning ta'lim-tarbiyasida qator tafovutlar mavjud. Bu avvalo bolaning maktabga tayyorlash jarayonida ko'rinadi.

Maktabgacha ta'lim muassasiga bormagan bola to'g'ridan-to'g'ri maktabga kelganda dastlab boshqa bolalarga qo'shila olmaydi. Chunki ular ko'proq oila muhitida ulg'ayganligi sababli nisbatan tortinchoq bo'lishadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida esa bolalarni nafaqat tengdoshlari balki kattalar bilan ham muloqot qilish ko'nikmalari rivojlantirladi.

Shu ma'noda, ushbu Dastur asosida maktabgacha ta'lim sifati tubdan yaxshilanadi, undagi ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ilg'or tajribalar joriy etiladi. Bola shaxsini kamol toptirish, unga faqatgina harfni o'rgatish emas, balki unda ijobiy fazilatlarni shakllantirish, uning ruhiyatida atrof-olam, jamiyat va ota-onasiga nisbatan hurmat hissini, ona Vatanni sevishdek muqaddas tuyg'ular singdiriladi.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalarida 5-6 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash bo'icha an'anaviy maktabga tayyorlash shakllari bilan bir qatorda uning muqobil shakllarini yaratish va rivojlantirish ham ko'zda tutilgan. Jumladan, yurtimiz bo'yicha maktabgacha ta'lim muassasalarida 6100 ta qisqa muddatli guruhlar tashkil etilishi

rejalashtirilgan. Maktabgacha ta'lim muassasidagi qisqa muddatli guruhlarni tashkil etish bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning samarali shakli bo'lib qoladi.

Qisqa muddatli guruhlarning yana bir muhim jihati, bu guruhlar bir tomondan yosh oilalarga qulaylik tug'diradi, ya'ni ularga moliyaviy engillik beradi. Eng muhimi esa, bolalarning maktabgacha ta'limga qamrovi oshib, boshlang'ich sinflarda o'quvchilar orasidagi tavofutga barham beriladi.

Yana muhim jihatlardan biri maktabgacha ta'lim muassasalaridagi bolalarning intelektual qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha zarur didaktik o'yin va o'yinchoqlar bilan ta'minlanishi, kichik kutubxonalarning tashkil etilishidir. Bolajonlarda badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishini yoshligidanoq o'yg'otish va eng asosiysi, ona-Vatanimizga nisbatan mehr-oqibatli va sadoqatli farzandlar bo'lib voyaga yetishlarida muhim rol o'ynaydi deb hisoblaymiz.

Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun pedagog kadrlar tayyorlash va ular malakasini oshirish bo'yicha Respublika Prezidentining qarori ayni muddao bo'ldi. Zamon shiddat bilan taraqqiy etayapti. Texnika va texnologiyalar yil sayin yangilanib borayotir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va uslublarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim muassasalariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishning o'quv reja va dasturlarini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilgan.

Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish o'quv reja va dasturlarini zamonaviy pedagogik texnologiya va metodlarni inobatga olgan holda takomillashtiriladi.

2200 ta maktabgacha ta'lim muassasasining moddiy-texnika bazasi mustahkamlanadi, jumladan qishloq aholi punktlarida yangi maktabgacha ta'lim muassasalarini quriladi, ularni zamonaviy talablarga javob beradigan inventar, uskunalar, o'quv-metodik qo'llanmalar, multimedia resurslari bilan ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida nodavlat ta'lim tashkiloti faoliyati nazarda tutilgan.

Unga asosan nodavlat ta'lim tashkiloti - davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini berishi belgilab o'tilgan.

Ushbu qonunda nodavlat ta'lim tashkilotlari o'z faoliyatini litsenziya asosida amalga oshirishi belgilab qo'yilgan va nodavlat ta'lim tashkilotlarining faoliyatini litsenziyalash «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga asosan quyidagi faoliyat turlari uchun litsenziya olinadi:

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim.

Nodavlat ta'lim tashkilotlariga litsenziya berish, litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish yoki tugatish, shuningdek uni bekor qilish va qayta rasmiylashtirish Ta'lim inspektsiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlari litsenziya talablariga va shartlariga muvofiq ta'lim xizmatlari ko'rsatadi, davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablariga muvofiq ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi nodavlat ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni beradi.

Mustaqil ishlab chiqilgan va litsenziyada ko'rsatilgan o'quv dasturlari bo'yicha ta'lim xizmatlari ko'rsatadigan nodavlat ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarga O'zbekiston Respublikasida tan olinadigan ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni beriladi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlari normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi va yuqori kasbiy mahoratga ega bo'lgan pedagog kadrlar va boshqa kadrlarni jalb qilish kerak bo'ladi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan o'quv dasturlari bo'yicha o'qitish ta'lim oluvchi yoxud uning ota-onaci yoki boshqa qonuniy vakillari va nodavlat ta'lim tashkiloti o'rtasida tuziladigan, o'qitish muddatlari, shartlari va to'lovlari, tomonlarning huquq va majburiyatlari hamda boshqa shartlar belgilanadigan shartnoma asosida amalga oshiriladi.

## ADABIYOTLAR:

1. Tolipov O'., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. Toshkent, 2006.

2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). Toshkent, 2009.

3. Матмусаева, М. А. (2017). Оилада болаларни меҳнатга ўргатиш. *Молодой ученый*, (4-2), 23-24.

4. Матмусаева, М. А. (2016). ТАЛАБАЛАР ПОРТФОЛИОЛАРИНИ ТАЙЁРЛАШ ШАРОИТЛАРИ. In *Сборники конференций НИЦ Социосфера* (No. 9, pp. 129-131). Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro.

5. Матмусаева, М. А. (2016). ТАЛАБАЛАРНИНГ ЎҚУВ ФАОЛИЯТЛАРИНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШНИНГ ИННОВАЦИОН ХАРАКТЕРИ. In *Сборники конференций НИЦ Социосфера* (No. 9, pp. 127-128). Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro.

6. Zukhrakhon, B. (2021). About the analysis of the potential of teaching staff in monitoring preschool education. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, *11*(1), 1120-1126.

7. Botirova, Z. A. (2019). THE THEORETICAL ANALYSIS OF THE APPICATION OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE FIELD OF PRESCHOOL EDICATION. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, *1*(11), 266-269.

8. Ergashevna, K. M. (2021). Factors for improving the quality of education in primary schools of non-state educational institutions. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *11*(9), 792-796.

9. Khallokova, M. E. (2018). Important Aspects of Establishing Non-State Educational Institutions. *Eastern European Scientific Journal*, (2).

10. Халлокова, М. (2022). Нодавлат таълим муассасаларида таълим тизимини модернизациялаш. *Общество и инновации*, *3*(1), 151-157.

11. Khallokova, M. E. (2021). CRITERIA FOR NON-EDUCATIONAL INSTITUTIONS TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATION. *World Bulletin of Social Sciences*, *5*, 52-55.

12. Makhmuda, Q., & Maftuna, K. (2020). Creative tasks in mathematics lessons in primary classes. *Proceeding of The ICECRS*, *6*, 398-400.

13. Adkhamjanovna, Q. M. (2020). Development of creative abilities in primary schools using ICT. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *10*(4), 807-811.

14. Damirovich, M. R., Kholikulovna, M. E., & Ibragimovna, A. S. (2022). THE USE OF INNOVATIVE TECHNIQUES IN TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE. Ijodkor o 'qituvchi, 2(19), 483-488.

15.Damirovich, M. R., & Ibragimovich, T. I. (2022). Sattarovich AU THE ROLE OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL EVENTS IN PROMOTING THE IDEAS OF RELIGIOUS TOLERANCE AND INTERNATIONAL HEALTH. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10, 1.

16. Дехканбаева, М. Н., Накибов, К., & Мустаев, Р. (2019). ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ОПУСТЫНИВАНИЯ. Экономика и социум, (11), 939-942

17. Мустаев, Р. Д., & Абдуллаев, С. А. (2020). АМИР ТЕМУР ВА ТЕМУРИИЛАР ДАВРИДА АХЛОКИЙ-ЭСТЕТИК ГОЯЛАРНИНГ РИВОЖЛАИИШИ. Интернаука, (24-3), 23-24.